

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI OROL BO'YI MINTAQASIDA
YASHOVCHI BOLALAR ORASIDA BRONXIAL ASTMA KASALLIGINING
TARQALISHIGA TA'SIR QILIVCHI EKOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI
VA KLINIK XUSUSIYATLARI**

1.Yusupova Liza Orinbaevna

2. Koshanova Nawbahar Qutlimuratovna

1.Qoraqalpog'iston Tibbiyot Instituti, "Patologiya" kafedrası assistenti,

2.Qoraqalpog'iston Tibbiyot Instituti, "Medicinaliq ximiya" kafedrası assistenti,

Nukus sh., Qoraqalpog'iston Respublikasi,

yusupovaliza93@gmail.com,

tel: +998913746009

Annotatsiya

Ushbu ishda Orol bo'yi mintaqasining ekologik muammolari fonida bolalar orasida bronxial astma kasalligining tarqalishi va uning klinik kechish xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019–2023 yillar oralig'ida davolanayotgan 100 nafar bolalar tibbiy hujjatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, bolalar orasida bronxial astma bilan kasallanish darajasi, ayniqsa shaharlarda, ekologik noqulay hududlarda (chang, qurg'oqchilik, atmosfera ifloslanishi) yuqori ekani aniqlandi. Ko'pchilik bemorlarda kasallikning o'rta va og'ir darajasi kuzatildi, ularning aksariyatida klinik belgilar sifatida - quruq yo'tal, nafas yetishmovchiligi, allergik rinit va anemiya holatlari qayd etildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik omillar bronxial astma rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va kasallikning erta aniqlanishi, profilaktikasi hamda kompleks davolash strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Kalit so'zlar: Bronxial astma, bolalar, Orol bo'yi mintaqasi, ekologik omillar, klinik xususiyatlar, chang, anemiya, allergik predispozitsiya. Qoraqalpog'iston Respublikasi, nafas yo'llari kasalliklari, profilaktika, ekologik monitoring.

Introduction

Kirish

Orolbo'yi mintaqasi Markaziy Osiyodagi eng og'ir ekologik muammolardan biriga aylangan hudud hisoblanadi. Ayniqsa, Orol dengizining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan iqlim va ekologik o'zgarishlar mintaqadagi aholi, ayniqsa bolalar salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy hududlarida joylashgan Orolbo'yi mintaqasi bugungi kunda havoning ifloslanishi, sho'r va changli shamollar, yer va suv resurslarining tanqisligi, kimyoviy moddalar bilan ifloslanish kabi ko'plab salbiy omillar bilan yuzma-yuz turibdi. Ushbu ekologik inqiroz natijasida bolalar orasida nafas olish tizimi kasalliklari, xususan, bronxial astma holatlarining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bronxial astma – bu surunkali yallig'lanish bilan kechuvchi, havo yo'llarining torayishi va reaktivligi bilan tavsiflanadigan kasallik bo'lib, bolalik davrida sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Mazkur ilmiy maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalar orasida bronxial astmaning tarqalishi, unga olib keluvchi asosiy ekologik omillar va kasallikning klinik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi — ekologik omillarning bolalar salomatligiga ta'sirini aniqlash, bronxial astma diagnostikasi va davolash holatini baholash hamda profilaktika choralari taklif qilishdan iborat.

Dolzarbli: So'nggi yillarda butun dunyoda, xususan, ekologik jihatdan og'ir hududlar qatoriga kiruvchi Orol bo'yi mintaqasida bolalarda allergik kasalliklar, ayniqsa bronxial astma bilan kasallanish holatlari ortib bormoqda. Bu hududda havoning ifloslanishi, chang bo'ronlari, ozuqa va suv sifatining pasayishi, shuningdek, ekologik halokatlar fonida yashovchi aholining sog'lig'iga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bronxial astma - bolalar orasida eng keng tarqalgan surunkali nafas yo'llari kasalliklaridan biri bo'lib, u ko'p hollarda erta tashxis va to'g'ri davolanmasa, nafas yetishmovchiligi va yashash sifatining pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, ekologik xavfli zonada yashovchi bolalarda kasallikning klinik kechishi o'ziga xos bo'lishi mumkin, bu esa shifokorlar tomonidan individual yondashuvni talab etadi. Shu sababli, Orol bo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda bronxial astmaning klinik va anamnestik xususiyatlarini chuqur o'rganish -nafaqat kasallikni erta aniqlash va davolash, balki sog'lomlashtirish va profilaktik choralarni ishlab chiqish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Qoraqalpog'iston Respublikasi Orol bo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda bronxial astma tarqalishiga ekologik omillarning ta'sirini baholash va uning klinik kechish xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqot retrospektiv bo'lib, 2019-2021 yillarda Respublika bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining pulmonologiya bo'limida statsionar davolangan 1 dan 17 yoshgacha bo'lgan bronxial astma bilan kasallangan 100 bemorning kasallik tarixlari tahlilini o'tkazdik. Tadqiqotda klinik-anamnestik va laborator usullar qo'llandi.

Tadqiqot natijalari: Jami 100 bola tekshirildi, ulardan 68 nafari o'g'il bolalar, 32 nafari qizlar. Bronxial astmaga chalingan bolalarda jinsiy taqsimotga qaraganda, o'g'il bolalar har yosh guruhida ustunlik qilgan. Eng ko'p kasalxonaga yotqizilish maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilgan, 1 dan 3 yoshgacha bo'lganlarda esa sezilarli darajada kamroq. 36% hollarda bolalar tez yordam brigadasi tomonidan olib kelingan, 51% poliklinika shifokori yo'nalishi bo'yicha, 13% esa o'zlari murojaat qilgan. Tekshiruv natijasida 65% bolalar shahar hududida, qolgan 35% esa qishloq va tuman hududida yashashi aniqlangan. Allergik nafas olish organlari kasalliklari bilan og'rikan bolalarning onalarida homiladorlik paytida anemiya, surunkali gipoksiya va yuqori nafas yo'llarida o'tkir respirator viruslar (gripp) bilan kasallanish kabi salbiy omillar bo'lgan. Tekshirilgan bolalarning 28,7% da oilaviy allergik kasalliklar anamnesti mavjudligi aniqlangan. Ularning 19,5% da allergik kasalliklar ko'proq onalarda, 9,2% da esa otalarda kuzatilgan. 100 ta boladan 92% o'rtacha og'irlikdagi anemiyadan aziyat chekkan. Qolgan 6% da og'ir anemiya, 2% da esa engil anemiya qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda 52,2% bolalarda

nafas yetishmovchiligining 2-darajasi kuzatilgan. 7 bola astmatik status holatida yotqizilgan. Shifoxonaga yotqizilgan paytida barcha bolalarda yo'tal, nafas olish qiyinligi, nafas yetishmovchiligi kabi shikoyatlar bo'lgan. 12 (12%) bolada 3 kundan ko'p bo'lmagan subfebril harorat kuzatilgan, ular orasida pnevmoniya yoki O'RVI kasalliklari ham mavjud edi. Tekshiruv paytida 11 (11%) bolada ko'krak qafasining emfizematoz deformatsiyasi aniqlangan. Ko'pchilik bemorlarda auskultatsiya vaqtida nafas olish ovozi susaygan, ko'plab quruq, shivirildigan nafas olish shovqinlari eshitilgan, ular bilan birga nam kichik va o'rta balg'amli shovqinlar ham bo'lgan.

Havoda suzuvchi mayda chang (partikulyar modda, PM10/PM2.5) bronxial nafas yo'llarini tirnash, yallig'lanish jarayonlarini qo'zg'atishi mumkin. Xususan, sho'rlangan dengiz osti yotqiziqlari, tuz va toksik moddalarning chang bilan birga tarqalishi. Masalan, "The impact of airborne dust on respiratory health in children living in the Aral Sea region" maqolasida 7-10 yoshdagi bolalarning nafas funktsiyasida changning yozgi davrdagi yuqori tolalar (dust deposition) bilan FEV1 (bir soniyada chiqarilgan havo miqdori) orasida salbiy bog'liqlik topilgan. Pestitsid, turli og'ir metallar, sho'rlash orqali paydo bo'lgan ionlar, tuzli aerzol va boshqa toksinlar bilan ifloslanish; ularning ingalatsiyasi yoki oziq-ovqat va suv orqali tanaga kirishi yallig'lanish, immun javobni buzishi mumkin. Orol dengizining qurishi bilan, dengiz osti suvi tarkibidagi minerallar va sho'r yerlar ifloslanib, chang tufayli tarqalishi. Masalan, Orol sohilidagi joylarda iqlim sharoiti bilan bog'liq fasllarda chang miqdori yuqoriligi haqida ma'lumotlar mavjud. Iqlim va ob-havo sharoiti issiq quruq havolar chang va allergen miqdorini oshiradi, sovuq fasllarda nafas yo'llarining reaktivligi oshadi; yuqori namlik, shilimshiqqa moyillik, haroratning tez o'zgarishi – bronxospazmi qo'zg'atishi aniqlangan. Orol bo'yi qurg'oqchiq mintaq, yozda quruq va issiq, changli shamollar, kuz-qish fasllarida sovuqqina va namlikning kamayishi, Orol bo'yi hududlarida sog'liqni saqlash xizmati resurslari, tashxis qo'yish darajasi, kerakli dori-vositalar, allergen testlari va spirometriya imkoniyati cheklangan.

Xulosa

Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi mintaqasida kuzatilayotgan ekologik inqiroz bolalar salomatligiga, xususan nafas yo'llari kasalliklari va bronxial astmaning tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Aral dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik omillar – havodagi chang va sho'r aerzollar, kimyoviy moddalar bilan ifloslanish, og'ir iqlim sharoiti va ichki muhit gigiyenasining pastligi – bronxial astma rivojlanishida asosiy xavf omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqada yashovchi bolalar orasida bronxial astmaga xos simptomlar (quruq yo'tal, nafas qisishi, "wheeze") ko'proq uchraydi, lekin diagnostika va kasallikni nazorat qilish darajasi yetarli emas. Ekologik omillarning kasallikning klinik kechishiga ham salbiy ta'siri aniqlanmoqda: bolalarda nafas olish faoliyati pasaygan, kasallik simptomlari esa og'irroq kechmoqda. Shu bois, bronxial astmaning oldini olish, erta aniqlash va samarali davolash uchun ekologik xavf omillarini kamaytirish, sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirish, aholining, ayniqsa ota-onalarning kasallik haqida xabardorligini oshirish, ekologik monitoring tizimini joriy etish va profilaktika tadbirlarini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tavsiya va takliflar

-Ekologik monitoringni kuchaytirish. Orolbo'yi mintaqasida havodagi chang, sho'r tolalar, kimyoviy modda va boshqa ifloslanish omillarini doimiy nazorat qilish tizimini joriy etish. Bu orqali nafas yo'llari kasalliklari xavfini oldindan aniqlash va profilaktika choralarini vaqtida ko'rish mumkin.

-Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish. Bolalarda bronxial astma va boshqa nafas yo'llari kasalliklarini erta tashxislash uchun zamonaviy diagnostika vositalari (spirometriya, allergologik testlar) bilan ta'minlash, malakali mutaxassislarni tayyorlash va hududiy tibbiyot muassasalarida ularning mavjudligini ta'minlash.

-Atrof-muhitni yaxshilash. Orolbo'yi hududida shamol va changni kamaytirish uchun daraxtlar ekish, quruq va sho'r yerlarni stabilizatsiya qilish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va yerlarni qayta tiklash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish.

-Aholini ekologik va sog'lom turmush tarziga o'rgatish. Ota-onalar, maktab o'quvchilari va umuman aholini bronxial astma va uning xavf omillari haqida xabardor qilish, uy ichidagi changni kamaytirish, sigaret chekishdan tiyilish, toza havo va to'g'ri oziqlanish ahamiyatini targ'ib qilish.

-Profilaktika va sog'lomlashtirish dasturlarini joriy etish. Bolalar uchun bronxial astma profilaktikasi, allergenlardan saqlanish, muntazam tibbiy ko'riklar va profilaktik davolash imkoniyatlarini yaratish.

-Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish. Orolbo'yi hududida bronxial astma tarqalishini chuqurroq o'rganish, ekologik omillar va kasallik aloqalarini aniqlash bo'yicha keng qamrovli epidemiologik va klinik tadqiqotlar tashkil etish.

Adabiyotlar:

- 1.«Клинические и иммунологические особенности тяжелой бронхиальной астмы с сенсibilizацией к грибам Aspergillus — Sherzod B. Muradov, Davlatshoh U. Numonov, Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
- 2.«Клинические лабораторные особенности бронхиальной астмы у детей с различной степенью тяжести» — Turaeva Nafisa Omonovna, Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
- 3.«Особенности течения бронхиальной астмы у детей с отягощенным перинатальным анамнезом» — Mavlyanova Z., Haydarova S., Ashurov R., Rustamova N.
- 4.«Особенности физического развития и неврологического статуса у детей с бронхиальной астмой» — Haydarova S., Mavlyanova Z., Sharipov R., Khudoykulova F.
- 5.«Study of the clinical course of familial bronchial asthma in the Uzbek population on the base of genetic research» — Okboev T.A.
6. Jumanalieva, M. (2024). Prevalence of Bronchial Asthma in Children in Southern Kyrgyzstan. International Journal of Child Health and Nutrition.
7. Horak, F. Jr., et al. (2000). The impact of airborne dust on respiratory health in children living in the Aral Sea region. Wien Klin Wochenschr.
8. Levashova, T. Yu., et al. (2004). Prevalence of bronchial asthma in poor environmental areas. Gig Sanit.

-
9. Farzan, S. F., et al. (2019). Respiratory Symptoms and Pulmonary Function among School-Age Children in the Aral Sea Region. *Int J Environ Res Public Health*.
 10. Alfrad Nobel Bhuiyan, M., et al. (2019). Source-specific contributions of particulate matter to asthma-related pediatric emergency department utilization. *arXiv*.